

RAQOBATNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLATNING USTUVOR MAQSAD VA VAZIFALARI

Karimov Shamsiddin Akram o'g'li

Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar:

Competition, legislation, public policy, anti-monopoly, priorities.

ABSTRACT

In this article, in the development of competition, antimonopoly authorities take a number of actions to limit the influence of monopoly, increase competition and stimulate innovation. Through these actions, the results such as proper regulation of market conditions, ease of entry for new companies, regulation of prices and creation of many opportunities for customers can be achieved.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

KIRISH

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash masalalari O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim omili bo'lib hisoblanadi. Binobarin har qanday biznes davlat ko'magisiz o'zining istiqbolli kelajagini va o'z qonuniy manfaatlari himoyasini ko'ra olmaydi.

Davlatning asosiy vazifasi bu resurslardan foydalanish samaradorligiga, shuningdek, davlat boshqaruvining samaradorligiga erishishdan iborat. Buning uchun esa sog'lom raqobat muhitini yaratish zarur. Raqobat muhitini shakllantirish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish vazifasi davlatning tartibga soluvchi funksiyalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat, raqobat nafaqat iqtisodiy o'sish, innovatsiyalarni joriy qilishni rag'batlantiradi, balki resurslardan foydalanishni optimallashtiradi, ichki zaxiralarni ishga soladi hamda yangi yetkazib berish zanjirlarini va biznes modellarini yaratadi, natijada esa iste'molchilar yuqori sifatli mahsulotlarni barqaror va hamyonbop narxlarda sotib olishga imkoniyat beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bozor iqtisodiyoti o'zining yetuklik darajasi va rivojlanish xususiyatlaridan qat'i nazar, raqobatning mavjud bo'lishini taqozo qiladi. Shuningdek, bozor iqtisodiyoti rivojlanib borishi bilan raqobatchilik munosabatlari ham takomillashib, o'z shakllarini o'zgartirib boradi. Raqobat bo'lmasa, bozor iqtisodiyotini barpo etib bo'lmaydi. Raqobat – bozorning asosiy sharti, aytish mumkinki, uning qonunidir. Raqobat – bozor subyektlari iqtisodiy manfaatlarning to'qnashuvidan iborat bo'lib, ular o'rtasidagi yuqori foyda va ko'proq nafillikka ega bo'lish uchun kurashni anglatadi.

Raqobat – umumijtimoiy toifa bo'lib, ijtimoiy jarayonlar qatnashchilari o'rtasidagi ko'proq foydaga erishishi uchun bo'ladigan kurashni anglatadi. Raqobat kurashi har qanday jamiyatda amal qiladi.

Kishilarning iqtisodiy faoliyati boshqa faoliyatlarning asosini tashkil qilgani uchun kishilik jamiyati hayotida raqobat kurashi muhim rol o'ynaydi.

Shu kunga qadar Raqobat sohasi 2 ta maxsus qonun, 8 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari, 13 ta Hukumat qarorlari va 3 ta idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solingan. Amaldagi qonun bugungi kun talablariga to'g'ri kelmaydi, ta'sirchanligi past va raqobat sohasidagi xalqaro hujjatlarga mos emas.

Eski "Raqobat to'g'risida"gi qonun 2012-yilda qabul qilingan bo'lib, unga 10 yil ichida 10 marotaba o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan. Qonunchilikda imtiyoz va preferensiyalar berishning aniq va shaffof mexanizmlari keltirilmagan bo'lib, raqobatga salbiy ta'sir ko'rsatib kelingan.

Ushbu qonunchilikda imtiyoz va preferensiyalar berishning aniq va shaffof mexanizmlari keltirilmagan bo'lib, raqobatga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Iqtisodiyotda davlatning ishtiroki raqobat muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Jami 93 ta davlat organlari tomonidan 5000 dan ortiq funksiyalar, 716 turdagi xizmatlar amalga oshiriladi. Shundan faqatgina 15 ta funksiya bo'yicha xususiy sektor vakillariga amalga oshirish huquqi berilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi PF-101-son Farmoniga asosan 13 ta sohada eksklyuziv huquqlar bekor qilinishi va xususiy sektor keng jalb qilinishi ko'zda tutilgan. Raqobat to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlikning samarasizligi qonun hujjatlarining takroran buzilishiga olib kelmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan yangi tahrirdagi "Raqobat to'g'risida"gi qonun ishlab chiqildi.

2023-yil 3-iyulda 850-sonli O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Raqobat to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Ushbu Qonunning maqsadi tovar yoki moliya bozorlarida raqobatning cheklanishiga, shuningdek raqobat yoki tabiiy monopoliya sharoitlarida iste'molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlarni nazorat qilishni amalga oshirish hamda ularga chek qo'yish bilan bog'liq bo'lgan, raqobat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Raqobat sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

iste'molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari ustuvorligini inobatga olgan holda raqobatni himoya qilish, raqobatga qarshi harakatlarning oldini olish va ularni to'xtatish;

jamiyatda raqobatga qarshi har qanday xatti-harakatlarga nisbatan murosasizlikni shakllantirish;

raqobat muhitini rivojlantirish hamda tovar va moliya bozorlarining samarali faoliyat ko'rsatishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

tovar va moliya bozorlari ishtirokchilarining iqtisodiy faoliyati erkinligini hamda tovarlarning erkin harakatlanishini ta'minlash;

tabiiy monopoliyalar subyektlari faoliyatni amalga oshiradigan sohalarda raqobat muhitini shakllantirish;

tovar va moliya bozorlarining ishtirokchilari uchun teng shart-sharoitlarni belgilash hamda davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini qisqartirish;

raqobat muhitini yaxshilash va rivojlantirish uchun respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining javobgarligini oshirish.

O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi raqobat sohasidagi vakolatli davlat organi (monopoliyaga qarshi organ) hisoblanadi. O'z faoliyatida bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga

hisobdor bo‘lib, u o‘z faoliyatini davlat organlari, boshqa tashkilotlar va mansabdor shaxslardan mustaqil ravishda amalga oshiradi.

Vakolatli davlat organi normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining raqobatga ta‘sirini baholaydi, shuningdek tovar yoki moliya bozorida raqobatni bevosita yoxud bilvosita cheklashga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan normalarni bartaraf etishga qaratilgan takliflar va tavsiyalar ishlab chiqadi.

Raqobatga ta‘sirni baholash uchun vakolatli davlat organiga quyidagilarni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari kiritiladi:

xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun yangi cheklovlar, litsenziyalarning, ruxsat berish tartib-taomillarining yangi turlari joriy etilishini yoki amaldagi cheklovlar, ruxsat berish tartib-taomillari, faoliyatning litsenziyalanadigan turlari bozor ishtirokchilarining yanada kengroq doirasiga nisbatan tatbiq etilishini;

litsenziyalar yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni olish uchun qo‘shimcha talablar va shartlar joriy etilishini;

yuridik shaxslar ustav fondining (ustav kapitalining) eng kam miqdoriga doir talablar oshirilishini;

xo‘jalik yurituvchi subyektlarning belgilangan huquqlari cheklanishini (kamaytirilishini) yoki ular uchun qo‘shimcha majburiyatlar yoxud qo‘shimcha xarajatlar joriy etilishini;

xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun har qanday turdagi imtiyozlar, kafolatlar, preferensiyalar belgilanishini, shuningdek ularga yangi huquqlar, shu jumladan eksklyuziv huquqlar berilishini.

Shuningdek, Monopoliyaga qarshi komplaens faoliyatning raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligini ta‘minlash, ularning buzilishi xatarlarini aniqlash va mazkur xatarlarning oldini olish bo‘yicha ichki tashkiliy tartib-taomillar tizimidan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda “Yangi O‘zbekiston ma‘muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–269-sonli hamda 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–14-son Farmonlariga muvofiq Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi hamda Iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish agentligi negizida Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi tashkil etildi.

Shuningdek, 2023–yil 6–iyulda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma‘muriy islohotlar doirasida raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-108-sonli Farmoni qabul qilindi.

Farmon bilan Qo‘mita faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari, tashkiliy tuzilmasi, sohada islohotlarni chuqurlashtirish va tizim faoliyatini transformatsiya qilish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”, Qo‘mitaning xususiy sektorga beriladigan funksiyalari ro‘yxati hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar nazarda tutildi.

Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish quyidagi ustuvor yo‘nalishlar asosida amalga oshiriladi:

raqobatni rivojlantirishga doir davlat siyosatining maqsadlari, vazifalari va asosiy tamoyillarining amalga oshirilishini ta‘minlash;

davlat miqyosida va mahalliy darajada raqobatni rivojlantirishning samarali mexanizmlarini yaratish, shu jumladan, iqtisodiyotda davlat ishtirokining ulushini kamaytirish;

tovarlar va xizmatlar bozorida raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash va elektron tijoratni rivojlantirish hisobiga monopoliyaga qarshi tartibga solish tizimini takomillashtirish;

tabiiy monopoliyalar faoliyatini huquqiy tartibga solish, tariflarni tartibga solishning samarali mexanizmlarini qayta ko‘rib chiqish;

davlat mulki ob‘ektlarini tanlov yo‘li bilan hamda kimoshdi savdosida sotishda samarali raqobat uchun sharoit yaratish;

davlat yordamini berish tizimini takomillashtirish, individual soliq va bojxona imtiyozlarini taqdim etish amaliyotini cheklash, ularning iqtisodiy maqsadga muvofiqligini va samaradorligini baholash.


Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-iyuldagi 303/10-sonli qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi huzurida Raqobat siyosati va iste‘molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi tashkil etildi.

Markaz faoliyatining asosiy maqsadi – tovar va moliya bozorlarida raqobat muhiti holatini tizimli tahlil qilish, shu jumladan, bozorlarga yangi ishtirokchilar kirishidagi to‘siqlarni aniqlash, mavjud imtiyoz va eksklyuziv huquqlarning raqobatga ta‘sirini baholash, ustun mavqeni egallab turgan bozor ishtirokchilarni aniqlash, monopoliyani tartibga solish va raqobat muhitini rivojlantirish, bozorlarni respublikada ishlab chiqarilgan mahsulotlarga to‘yinganligi darajasini aniqlash, iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish va reklama bozorini takomillashtirish hamda tabiiy monopoliya sohalarini tartibga solish bo‘yicha strategik dasturlar ishlab chiqish hamda mamlakat iqtisodiyotini isloh qilishning bugungi bosqichdagi boshqa dolzarb vazifalarni hal etishda iqtisodiyot fanining rolini kuchaytirish.

2023-yil 30-aprelda o‘tkazilgan referendumda umumxalq ovoz berish orqali O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi qabul qilinganligi Yangi O‘zbekistonni barpo etishning konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamlashga xizmat qildi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiq o‘tkazilgan prezidentlik saylovi yana bir bor jamiyatimizning siyosiy yetukligi, Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlarni xalqimiz to‘liq qo‘llab-quvvatlaganidan dalolat bermoqda.

Shu bilan birga, yangilangan konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlarini takomillashtirish va amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish talab etilmoqda.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi tasdiqlandi.



1-rasm. “O‘zbekiston-2030” strategiyasining asosiy g‘oyalari ¹

“O‘zbekiston-2030” strategiyasini asosiy ustuvor yo‘nalishlardan kelib chiqib 100 ta asosiy maqsadlar belgilab berilgan. Strategiyaning 56-maqsadida aynan Monopol sohalarni bozor tamoyillariga izchil o‘tkazish, iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish, tadbirkorlarga erkin faoliyat yuritishi uchun eng qulay sharoitlar yaratish vazifasi belgilangan hamda ushbu maqsad bo‘yicha:

1) Iqtisodiyotda nodavlat sektor ulushini 85 foizga yetkazish, davlat ulushi mavjud 2,3 mingta korxonalar sonini 6 barobarga kamaytirish.

2) Respublikada 17 turdagi davlat monopoliyasini bekor qilish, ushbu sohalarga xususiy sektorni keng jalb qilish, davlat tasarrufida faqat magistral energiya va transport tarmoqlari, davlat boshqaruvi va xavfsizligi bilan bog‘liq sohalarni saqlab qolish.

3) Temiryo‘lda tashish, avtomobil yo‘llarini qurish va boshqarish, gaz va elektr yetkazib berish xizmatlarini xususiy sektorga olib berish va boshqa bir qancha vazifalarni amalga oshirish belgilangan.

Strategiyada ko‘rsatilgan ushbu maqsadlarni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-300-son qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorning 2-ilovasi bilan tasdiqlangan amaliy tadbirlar rejasining 56-maqsadida Monopol sohalarni bozor tamoyillariga izchil o‘tkazish, iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish, tadbirkorlarga erkin faoliyat yuritishi uchun eng qulay sharoitlar yaratish maqsadida Ayrim sohalarda xususiy sektorni keng jalb qilish orqali davlat monopoliyasini bekor qilish va davlat tasarrufida faqat magistral energiya va transport tarmoqlari, davlat boshqaruvi va xavfsizligi bilan bog‘liq sohalarni saqlab qolish belgilangan.

Quyidagi 17 turdagi davlat monopoliyasini bekor qilish bo‘yicha amaliy chora-tadbir va “yo‘l xaritalari”ni ishlab chiqish:

neft bazalari va avtomobillarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari;

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ““O‘zbekiston – 2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 11.09.2023-yildagi PQ-300-son qarori ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan mustaqil tayyorlandi

kimyo mahsulotlari korxonalari;
 qurilish materiallari korxonalari;
 aeroport infratuzilmasini boshqarish;
 iste'molchilarga elektr yetkazib berish (kichik quvvatli tarmoqlar);
 iste'molchilarga tabiiy gaz (kichik bosimli tarmoqlar) va suyultirilgan gaz yetkazib berish;
 iste'molchilarga ichimlik suv ta'minoti va oqova tizimlarini boshqarish;
 ijtimoiy obyektlarga issiqlik ta'minoti xizmatini ko'rsatish;
 avtomobil yo'llarini qurish va boshqarish;
 temir yo'l vokzallarini boshqarish va xususiy vagonlar bilan ta'minlash;
 avtomobil savdo shoxobchalari;
 kichik irrigatsiya tizimlarini boshqarish;
 chiqindilarni yig'ish va qayta ishlash;
 turizm sohasidagi xizmatlarni sertifikatlashtirish va ularni boshqarish;
 arxitektura rejalarini ishlab chiqish;
 loyihalashtirish ishlari va injiniring xizmatlari.

Ushbu vazifaga muvofiq 17 turdagi davlat monopoliyasini bekor qilish bo'yicha «yo'l xaritalari» ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari tomonidan tasdiqlangan.

Mazkur "Yo'l xaritasi"ga asosan qurilish materiallari korxonalari, iste'molchilarga elektr yetkazib berish (kichik quvvatli tarmoqlar), iste'molchilarga tabiiy gaz (kichik bosimli tarmoqlar) va suyultirilgan gaz yetkazib berish, avtomobil savdo shoxobchalari, arxitektura rejalarini ishlab chiqish hamda boshqa sohalarda davlat monopoliyasini tugatish belgilangan.

Xulosa qilib aytganda, sog'lom raqobat muhitini shakllantirishning davlat tomonidan tartibga solinishi respublika bozorlarida raqobatni rivojlantirish uchun zarur tashkiliy - huquqiy va iqtisodiy sharoitlarni yaratish, bozorlarning monopollashtirishga urinishlarga yo'l qo'ymaslik, bozor iqtisodiyoti talablariga javob beruvchi monopoliyaga qarshi tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, iste'molchilar huquqlarini himoyalash chora-tadbirlarini o'z ichiga oladi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2023-yil.
2. O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi Qonuni, 03.07.2023.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "["O'zbekiston – 2030" strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"](#) 11.09.2023-yildagi PQ-300-son qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2023-yil 6-iyuldagi PF-108-son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "["Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"](#)gi 2022-yil 21-dekabrda PF-269-son Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "["Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"](#)gi 2023-yil 25-yanvardagi PF-14-son Farmoni.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “[Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida](#)”gi 2023-yil 8-maydagi PF-67-son Farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “[“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida](#)”gi 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni.
9. Iqtisodiyot nazariyasi. B.Y.Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov; Toshkent-2017.
10. I.Sharipov “Raqobat siyosati”, Samarqand davlat universiteti, Samarqand-2020.
11. “O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi 25 yil” (1996-2021) jurnal.